

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
CBT.....7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA .....26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI .....30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) .....33-37

*Норов Шуҳрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) .....38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) .....42-43

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI.....44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI .....48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI .....64-66

<i>Abduraimova Nigora</i>	
TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i>	
MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i>	
TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i>	
INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
<b>FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Gafurova Munojat</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i>	
ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....	93-98
<b>FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yusufova Farangiz</i>	
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i>	
O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i>	
IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i>	
CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuz</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) .....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i>	
"MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i>	
"DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i>	
TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbanova Aziza</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARING AHAMIYATI .....	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i>	
ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

*Qosimova Malika*

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH  
METODLARI ..... 137-140

*Ayimbetova Damekhan*

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA  
OBRAZLAR TIZIMI ..... 141-145

*Yo'lidasheva Mahliyo*

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI ..... 146-149

## ***YURIDIK FANLARI***

*G'ofurov Ramzbek*

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI ..... 150-154

*Turdibaeva Mukhaddas*

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES ..... 155-160

*Gafurova Shoira*

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM  
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI ..... 161-165

*Komilov Avazbek*

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI  
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR ..... 166-169

*Babajanov Farrux*

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS  
ETTIRISH ..... 170-175

## ***PEDAGOGIKA FANLARI***

*Nuriyllaeva Ugulxon*

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И  
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ..... 176-181

*Tursinova Zoxida*

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI  
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI ..... 182-191

*Babayeva Shahnoza*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI ..... 192-194

*Rasulova Baroxon*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV  
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI ..... 195-199

*Zokirjonov Akramjon*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI ..... 200-202

*Baratova Yulduz*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН  
YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ..... 207-210

**TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*  
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN ..... 211-213

*Mamadaliiev Xasanxon*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)  
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-  
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ..... 214-218

*Maxmudbekov Boburmirzo*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA  
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH ..... 219-221

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Usmanova Lilia*  
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ  
ТРАДИЦИИ ..... 222-225

**SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*  
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI ..... 226-231

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI**

**Baratova Yulduz Asadullayevna**

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti tyutori

E-mail: [yulduzasadullayevna@gmail.com](mailto:yulduzasadullayevna@gmail.com)

Tel: +99897 793 30 10

Jizzax. O'zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mazmuni, ahamiyati hamda uni amaliyatga tatbiq etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, faoliik markazlari, pedagogik pozitsiya, shaxsiy tajriba, rivojlantiruvchi markazlar, o'z-o'zini anglash, "Men" konsepsiyasi, pedagogik yondashuv, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik.

## **THE IMPORTANCE OF A PERSONALITY-ORIENTED APPROACH IN THE EDUCATION OF PRESCHOOLERS**

**Baratova Yulduz Asadullayevna**

Tutor at Jizzakh State Pedagogical University

**Annotation.** This article examines the content and importance of a personality-oriented approach in the education of preschoolers, as well as ways to apply it in practice.

**Key words:** Creative approach, pedagogical technologies, activity centers, pedagogical position, personal experience, development centers, self-awareness, the concept of "I", pedagogical approach, communication, creative creativity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-45>

**Kirish.** Maktabgacha ta'lif – shaxs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri. Bu yillar davomida bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda insonlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, to'g'ri xatti-harakatlar ko'nikmasi va odatlari rivojlanadi, o'z xarakteri paydo bo'ldi. Ma'lumki, shaxsiyatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo'yiladi: bolaning maktabgacha yoshida shakllangan fazilatlari va fe'l-atvorlari keyinchalik o'zgarmaydi. Shu asosda, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayoni har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalgalashgan samarali natijalarga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida alohida ahmiyat kasb etadi. Bu yondashuv bolaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, rivojlanish sur'ati va salohiyatini chuqur o'rganib, unga mos tarbiya va ta'lif berishni nazarda tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lif bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda asos solinadigan tarbiyaviy ishlar uning keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali bola o'zini erkin ifoda etishga, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga hamda ijtimoiy ko'nikmalarni egallahsga o'rnatiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini

rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan ruhiy shaxsini rivojlantirishga qaratishdir.[7.,B.28] Ta'limga asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolaning shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlar, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'limga jarayoni-ta'limga "bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish" modelidan, "bola tashabbuslari maqullanadigan va bola ta'limga jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo'naltirilishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga maqsadi: bolaning o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini ko'rsatishdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga modeli – bizning ta'limga tizimimizga tanish bo'lgan bolaga ta'limga va intizomni yo'naltirishni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lishidir. Bola kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqorida" emas, balki yonma-yon va birga olishni anglatadi.[4., B.13-14]

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari:

O'zini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning ta'limi, ijtimoiy, badiiy, jismoniy faoliyatlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Individuallik tamoyili. Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'limga tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish kerak.

Subyektivlik tamoyili. Individuallik faqat subyektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalana olgan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy subyektga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirishi va boyitishiga hissa qo'shish kerak.

Tanlash tamoyili. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subyektivlikni rivojlantirib, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Bola doimiy ravishda tanlash, ta'limga jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va uslublarini tanlashda subyektlik vakolatlariga ega bo'lishi kerak. Bu esa rivojlantiruvchi markazlar orqali amalgalashiriladi. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit (rivojlantiruvchi markazlar) zarur.

Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotini mustaqil ravishda tashkil etishida maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning yaratilishi va samaradorligini belgilaydi. Faoliyatning real va maksimal darajada ta'minlanganligi bolaning faoliyatda tajribaga ega bo'lishini ta'minlab beradi. Shuningdek, bola ijodiy faoliyatga jalb qilinishi lozim. Ijodiy faoliyat bolaning shaxsiy rivojlanishiga imkon beradi. Ijodkorlik turli-tuman faoliyatda yuzaga chiqadi. Bu, asosan, ijodiy tomonlarini bildiruvchi jihatlari orqali namoyon bo'ladi. Ijodkorlikni rivojlantirishning eng muhim

jihatlaridan biri tomonlarini, "Men" kontseptsiyasini shakllantirishdir. Bu esa bolaning erkin o'zini ifoda etishiga yordam beradi.

Ishonch va quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatning insonparvarligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lismi va tarbiya texnologiyalari bilan boyitilishi muhimdir. Bolaga ishonch, o'zini-o'zi anglash va o'zini "men"ligiga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, orzulari, talablari va xohishlariga tashqi nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashqi kuchlar emas, balki ichki motivatsiya bolaning o'qitish va tarbiyalashining muvafaqqiyatini belgilaydi.

Farqli yondashuv tamoyili. Tarbiyanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishning samarali pedagogik yondashuv vositalardan biri hisoblanadi. Tarbiyanuvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini va imkoniyatlarini ochib beradigan individual yondashuv pedagogik vazifalarni yaratishda yordam beradi. Bolalarning tabiatiga, ruhiy sog'lig'iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta'lim jarayonini o'yin orqali va bolalar bilan ishlashning shakli sifatida, munozaralarni, suhbatlarni, qo'shma kuzatuvlar va eksperimentlarni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo'yilgan vazifasi samarali muloqot tamoyillaridan foydalanishdan iborat.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalar har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi. Shu bilan birga bolalarning munosabatini va faoliyati tashkil etilishini o'zgartiradi, turli o'quv qo'llanmalardan foydalaniladi:

tadqiqot (muammolarni izlash, kashfiyot orqali o'rganish, tajriba);

kommunikativ (munozara, nutqni rivojlanirish, fantaziya, notiqlik, tushunish);

o'yin (o'yin orqali o'rganish, ertak, vaziyat, sahnalashtirish – fantaziyaga kirish);

psixologik (o'z taqdirini o'zi belgilashi – bu bolani tanlashga o'rgatish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi yuksaltirish, o'zini-o'zi tarbiyalash);

faoliyat (bola bilimlarni tayyor holda olmaydi, balki ta'limga tarbiya jarayonida o'zi o'rganadi. Ta'limga tarbiyaning tuzilishini faol qadamlar tizimini o'z ichiga oladi);

refleksiv (individuallikni saqlash, ijodiy yaratuvchanlik, shaxsiylikni har qanday faoliyatda shaxs sifatida saqlab qolish, o'zini-o'zi aniqlash vositasi).[8., B. 21-23]

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda ta'limga tarbiya jarayonida bolaning bir vaqtning o'zida tinglashi, rivojlanishi va o'rganishi uchun imkoniyat yaratish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar va pedagog o'rtaсидаги о'заро munosabatlarning asosiy shakli ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi.

Birgalikdagi faoliyat – bu bolani subyekt pozitsiyasini egallash shartidir, jarayon davomida bolaning qiziqishlari, moyilligi, ehtiyojlari, istaklari qo'ndiriladi, ijodiy salohiyati rivojlanadi, shaxsiy fazilatlari (faoliyati, tashabbusi, mustaqilligi, ijodkorligi) shakllanadi.

Birgalikdagi faoliyat quyidagicha tashkil etiladi:

bolalarni qiziqtirgan muammolarni birgalikda aniqlash;

bolalar faoliyatining maqsadini birgalikda aniqlash;

bolalar faoliyatini birgalikda rejalashtirish, taxminlar, muammolarni hal qilishda vosita bo'lish;

bolalarning mustaqil faoliyati, tarbiyaning individualligi yordam;

birgalikdagi faoliyat natijasini muhokama qilish, to'g'rilarini muhokama qilish, muvafaqqiyatli qismlarini aniqlash.

Bolalar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish jarayonida yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishni yaratish kerak: muvaffaqiyatli holatlar, bolaning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq vaziyatlar, faoliyat, vaziyatni tanlash, faoliyat sferasi va bolaga o'zini shaxs sifatida anglash imkoniyatini berish.[4., B.16-17]

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy pedagogik jarayonning asosiy tamoyillaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali har bir bolaning individual qobiliyati, ehtiyoji, qiziqishi va rivojlanish sur'atlari inobatga olinadi. Bola markazga qo'yilgan holda, uning faolligi, mustaqilligi, tashabbusi va ijodkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolani tayyor bilimlar bilan emas, balki mustaqil izlanish va tajriba asosida bilim olishga undaydi. Bu esa bolaning fikrlash doirasini kengaytirib, o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, qaror qabul qilish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, pedagog bilan bola o'rtasida iliq, samimiyl va ishonchli munosabatlar rivojlanadi. Bu munosabatlar bolaning shaxs sifatida o'zini erkin namoyon etishiga, mustahkam ijtimoiy-psixologik asosga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv shuningdek, o'quv jarayonida faollik, tanlov, ijodiy yondashuv, hamkorlik, refleksiya kabi elementlarni faol qo'llashni talab etadi. Pedagog esa nafaqat bilim beruvchi, balki yo'boshchi, kuzatuvchi va rag'batlantiruvchi rolini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolani to'laqonli shaxs sifatida rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois bu yondashuv maktabgacha ta'limda ustuvor tamoyil sifatida keng qo'llanilishi zarur.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. "Maktabgacha ta'lism va tarbiya to'g'risida"gi Qonun **16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son**
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son
3. Grosheva I. O'zbekiston Respublikasi Davlat o'quv dasturi doirasida "Maktabgacha ta'lism muassasalaridagi rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish" "Ta'lism va tarbiya ilmiy amaliyotda tajribadan foydalanish: muammo va yechimlar" Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. 24-25 okt. 2020 y.
4. Shin.A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Y.T., Daukayeva A.G., Vlasova E.N., Galimova E.F. "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lism jarayonini rejalashtirish" Metodik qo'llanma. T.: 2020 yil
5. Tsay E.Yu., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Ismailova M.A. O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini maktabgacha ta'lism muassasalari amalda qo'llash bo'yicha trenerlar uchun qo'llanma. Toshkent, 2019 yil.
6. Evstaf'eva L., Nabixanova Sh., Pak S. va boshqalar. "Maktabgacha ta'lism muassasalaridagi rivojlantiruvchi muhitni vaziyatli rejalashtirish. Tayyorlov guruhi. "Ilk qadam" dasturi bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent, 2018 yil.
7. Nabixanova Sh.B., Grosheva I.V. "Maktabgacha ta'lismning katta guruhlarida ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil etish." "Maktabgacha pedagogika masalalari" jurnali. 5-son, 2018 yil.
8. Yakimanskaya I.S. "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lism texnologiyasi".M., 2000 yil

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.